DARSLARDA “YUKLASH” TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY-USLUBIY TAHLILI

Dawletmuratova Bayramgu‘l Maxsetbay qizi
Nukus davlat pedagogika instituti
Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(boshlang‘ich ta’lim) yo‘nalishi 2-bosqich magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.7737546

Annotatsiya: Ushbu maqolada yuklash darslarining modellari, tamoyillari, “yuklash” texnologiyasining nazariy va uslubiy asoslari ko‘rib chiqiladi. Boshlang‘ich sinflarda “yuklash” texnologiyasi asosida darslarni tashkil qilish namunalari keltirib o‘tiladi.
Kalit so‘zlar: Yuklash darslari, fanlararo “yuklash” texnologiyasi, tasviriy “yuklash”, metapredmet “yuklash”, evristik “yuklash”.

THEORETICAL-METHODICAL ANALYSIS OF USE OF "IMMERSION" TECHNOLOGY IN LESSONS

Dawletmuratova Bayramgul Makhsetbay kizi
Nukus State Pedagogical Institute
Master's student of the 2nd stage of the field of
Theory and Methodology of Education
and Training (primary education)

Abstract: This article examines models, principles of immersion classes, theoretical and methodological foundations of "immersion" technology. Examples of organizing classes based on the "immersion" technology in primary classes are given.
Keywords: Immersion lessons, interdisciplinary immersion technology, representational immersion, metasubject immersion, heuristic immersion.

Bugungi kunda mamlakatimizda yosh avlodni maktab davridan boshlab xalqaro talablarga javob beradigan, chuqur bilim va salohiyatga ega, ijodiy va tanqidiy fikrlaydigan shaxs sifatida voyaga yetkazish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bu ishlar shubhasiz ta’lim-tarbiya jarayonida amalga oshiriladi va zamonaviy o‘qituvchilar zimmasiga qator vazifalarni yuklaydi.

Bu borada dars jarayonida zamonaviy ta’lim metodlari va texnologiyalaridan, ilg’or tajribalardan, muammoli ta’lim usullaridan foydalanish ijobiy natijalar beradi deb o‘ylaymiz.

Yuklash darslari konsentratsiyalangan ta’lim modellaridan biri hisoblanadi [6]. Yuklash texnologiyasi asosida tashkil qilingan darslarning asosiy xususiyati shundaki, bu jarayon quyidagi tamoyillarga suyanadi: dam olish, zavqlanish, ong va ong osti birligi, ikki tomonlama aloqa. Ya’ni, o‘quvchilarning hissiy idrogini faollashtiradigan musiqiy, badiiy, xoreografik iste’dodlarini rivojlantiradigan yangi materialni taqdim etish orqali ularning ong va ong osti birligi ta’minlanadi. Bundan tashqari, yuklash darslari har bir bolaning diqqatini jamlash va faollashtirishni o'z ichiga olgan faol darsdir.

Pedagogik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, “yuklash” texnologiyasi amaliyotda kamdan kam qo‘llaniladigan texnologiya bo‘lib, uning nazariy va amaliy jihatlari olimlar orasida har xil tushuniladi.

Darslarni “yuklash” texnologiyasi asosida tashkil qilish modellari birinchilardan bo‘lib 80-yillarning boshlarida rossiyalik pedagog, akademik M.P.Shetinin tomonidan ishlab chiqilgan va rivojlantirilgan. M.P. Shetinin [5] darslarni yuklash texnologiyasi asosida tashkil qilishning quyidagi modellarini ishlab chiqqan, bular:

- tasviriy “yuklash”;
- fanlararo “yuklash”;
- metapredmet “yuklash”;
- evristik “yuklash”;
- taqqoslash;
- madaniyatda “yuklash”.

Keyinchalik bu borada A.I. Tubelskiy (fanlararo “yuklash”), A.V. Xutorskiy [4] (evristik “yuklash”), A.A. Ostapenko [3], L.N. Snegurova, S.A. Terskova, E.V. Shubina, S.D. Mesyats [2] “yuklash” ta’lim olishning jamoaviy usuli sifatida), E.B. Evladova (madaniyatda “yuklash”) kabi pedagog olimlar o‘z izlanishlarini olib borganlar.

Psixologiya ilmlari doktori P.M. Granovskaya “yuklash” texnologiyasini “suggestopedia” tushunchasi bilan tenglashtirib, unga quyidagicha ta’rif beradi: yuklash – bu dam olish, taklif va o‘yin elementlari bilan olib boriladigan faol ta’lim metodi. Uning ta’kidlashicha, “yuklash” metodi boshqa ta’lim metodlaridan farqli ravishda e’tiborning g‘ayrioddiy konsentratsiyasi va ijodiy qobiliyatlarning kuchayishini ko‘zda tutadi. Psixolog olim “yuklash” texnologiyasin uchta tamoyilga asoslanishini aytib o‘tadi, bular:

- sinfda dam olish va zavqlanish;
- ong va ong osti birligi;
- dars jarayonida ikki tomonlama aloqa.

Metodikada darslarni yuklash texnologiyasi asosida tashkil qilishda quyidagi komponentlar majburiy hisoblanadi:

- **interfaol ta'lim shakllari.** Bunday darslarda guruhda ishlash, juft bo‘lib ishlash va o‘yin texnikasidan foydalaniladi.
- **katta hajmli ma'lumotlarni taqdim etish.** Bu, birinchi navbatda, didaktik materialni to‘g‘ri tanlashni talab qiladi. Taqdim etilgan ma'lumotlar umumlashtirilgan bo‘lishi, ammo batafsil bo‘lmasligi kerak, bu o‘quvchilarning mantiqiy va hissiy idrogini birlashtirishga imkon beradi.
- **badiiy vositalar** (rasmlar, o‘yinlar, musiqa, raqslar, qo'shiqlar va boshqalar) yuklash texnologiyasi darslarining eng muhim elementidir. Bunday vositalar sinfda emotsional va hissiy muhitni yaratishga yordam beradi.
- **bilimlarni nazorat qilish** test shaklida amalga oshiriladi. Ammo ijodiy topshiriq va vazifalarga ham ruxsat beriladi.

“Yuklash” darslarining turli modellarini tahlil qilish texnologiyaning o‘ziga xos xususiyatlarini ajratib ko‘rsatish imkonini beradi. Yuqorida sanab o‘tilgan barcha modellarning umumiy tarkibiy qismlari quyidagilar hisoblanadi:

- o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi hamkorlik;
- ta'limning guruh va jamoaviy shakllari;
- o‘quv faoliyatining bir-birini to‘ldiruvchi shakllarining xilma-xilligi;
- o‘quvchilarning va o‘qituvchilarning vaqtlarini tejash;
- o‘quvchilarga chuqur bilim berish;
- bilimlarni o‘zlashtirish vaqtini ko‘paytirmagan holda hajmini oshirish;
- har bir o‘quvchiga bilim olish imkonini beruvchi individuallik tamoyilini amalga oshirish;
- darslardagi charchoqlarni kamaytirish;
- sinfda psixologik muxitni yaxshilash;
- bilim olish uchun motivatsiyani oshirish.

Ushbu barcha modellarning umumiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- talabalar tomonidan axborotni idrok etishning yaxlitligi;
- olingan bilimlarning yaxlitligi;
- o‘qish vaqtining tejalishi;
- bilimlarni chuqur o‘rganish imkoniyati;
- ta'lim olishning qulayligi [1].

Fanlararo yuklash darslarida ma'lum bir fanlararo integratsiyalashgan mavzu bir kun davomida ma'lum bir vaqtda o‘rganiladigan ta'lim tizimini tushunamiz. Yuklash darslari markazida o‘quv materialining mazmunini birlashtirish yotadi. Bu metod ma'lum mavzular yoki loyihalar bo‘yicha o‘quv fanlarini o‘qitishni guruhlash imkonini beradi. Masalan, tarbiya, tabiiy fanlar yoki o‘qish darslari adabiy asarni

o‘rganish bilan bog‘liq. Biz ushbu maqolamizda fanlararo yuklash darslaridan misollar keltirib o‘tamiz.

Yuklash texnologiyasi asosida har qanday darsni tashkil qilish mumkin. Bunday darslarni tashkil qilish algoritmi quyidagicha:

1. O‘qituvchi tomonidan kontseptual lug‘at ishlab chiqilishi kerak.
2. Sinf xonasini tayyorlash (agar madaniy yoki tasviriy yuklash texnologiyasidan foydalanilsa).
3. Emotsional, hissiy idrokni jalb qiluvchi umumlashtirilgan shakldagi didaktik va badiiy materiallarni tayyorlash.
4. Har xil turdagi ijodiy va o‘yin topshiriqlarini ishlab chiqish.
5. Dars shaklini tanlash. Dars uchun eng qulay shaklni tanlash, ya’ni, sayohatlar, sayrlar, intellektual musobaqalar bo‘lishi mumkin.

Quyida biz 4-sinf ona tili darsida “Matn” mavzusini “O‘qish” darsligidagi “Kuz” mavzusi bilan birlashtirib, yuklash texnologiyasi asosida darsni tashkil qilishimiz mumkin. Bunda “Matn” mavzusi etakchi mavzu sifatida, “Kuz” mavzusi esa hissiy idrokni rivojlantirishga qaratilgan mavzu sifatida tanlab olinishi mumkin. Endi esa dars mavzusidan kelib chiqib didaktik va badiiy vositalar tanlab olinadi. Dars jarayonida kuzgi rasmlardan, prezentatsiyalardan, tabiiy ko‘rgazmali qurollardan, kuzgi musiqalardan, ya’ni, barglarning shitirlashini, yomg‘irning yog‘ishini aks ettiruvchi musiqalar, videoroliklardan foydalanish mumkin. Bundan tashqari, o‘quvchilar bilan birgalikda sayoxatlar uyishtirishimiz, kuzgi o‘rmonga yoki sayrgohlarga sayr qilishimiz, kuz haqida she’rlar, hikoyalar o‘qib berishimiz, birgalikda kuz fasli haqidagi film tomosha qilsak bo‘ladi.

Yuqoridagi vazifalar bajarilib bo‘lingandan keyin esa, asosiy mavzuimiz bo‘lgan “Matn” mavzusiga qaytamiz. O‘qituvchi tomonidan “Matn” mavzusi tushuntiriladi, matn tuzish bo‘yicha tushunchalar beriladi, misollar keltiriladi, jamoa bilan birgalikda kichik matnlar tuziladi.

O‘quvchilarining kuz fasli haqidagi tushunchalari va tasavvurlari kengaydi, kuz haqidagi bilimlari didaktik va badiiy vositalar yordamida mustaxkamlandi. Yuklash darsining keyingi o‘ziga xos natijasi “Saxovatli kuz” mavzusida matn yaratish bo‘ladi. O‘quvchilarning tuzgan matnlari jamoada tahlil qilinadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, “yuklash” texnologiyasi o‘quvchilarga o‘z-o‘zini anglash, guruhda ishlash orqali bilimlarini boyitish, bilim olishga motivatsiya darajasini oshirish, dars vaqtini tejash, individual xususiyatlarini hisobga olgan holda bilimlar hajmini oshirish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Изотова Е.А. Использование метода погружения в учебно-воспитательной работе: методические рекомендации/ автор - составитель – Галич: 2011. – 17с.

2. Месяц С.Д. Погружение — шаг в противоположность. Из опыта осмысления // Методика погружения: «за» и «против»: Сб. научн. метод, ст. /Под ред. А.А. Остапенко. Краснодар АЭСПК. 1995. С. 23-29.

3. Погружение как метод концентрированного обучения: Сб.научно-методических ст. / Под ред. А.А. Остапенко. Азовская: АЭСПК, 1997. 16 с. (Вестник Азовского экспериментального социально-педагогического комплекса. Выпуск 5).Хуторской А.В. Эвристическое обучение: Теория, методология, практика. М.: Международная педагогическая академия, 1998. — 266 с

4. Щетинин М.П. Объять необъятное: Записки педагога: книга. Педагогикаб, 1986.

5. https://bookap.info/praktik/granovskaya_elementy_prakticheskoy_psihologii/gl51.shtm